

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019. T/FM.61.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA–QURILISH UNIVERSITETI

XODJABEKOV MURADJON USAROVICH

**TEBRANISHLARDAN HIMOYALANUVCHI MEXANIK SISTEMALARNI
STRUKTURAVIY MODELLASHTIRISH VA USTUVORLIGINI
TEKSHIRISH MASALALARI**

01.02.01 – Nazariy mexanika

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI
(Doctor of Science) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent –2024

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора (DSc) по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor (DSc) on physical-
mathematical sciences**

Xodjabekov Muradjon Usarovich

Tebranishlardan himoyalانuvchi mexanik sistemalarni strukturaviy modellashtirish
va ustuvorligini tekshirish masalalari5

Ходжабеков Мурадjon Усарович

Задачи структурного моделирования и исследования устойчивости
виброзащищаемых механических систем34

Khodjabekov Muradjon Usarovich

Problems of structural modeling and stability of mechanical systems protected from
vibrations.....66

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....70

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019. T/FM.61.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT ARHITEKTURA–QURILISH UNIVERSITETI

XODJABEKOV MURADJON USAROVICH

**TEBRANISHLARDAN HIMOYALANUVCHI MEXANIK SISTEMALARNI
STRUKTURAVIY MODELLASHTIRISH VA USTUVORLIGINI
TEKSHIRISH MASALALARI**

01.02.01 – Nazariy mexanika

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI
(Doctor of Science) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/FM179 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat arxitektura–qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.insmech.uz) va "Ziyonet" Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar:

Dusmatov Olimjon Musurmonovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mirsaidov Mirziyod Mirsaidovich

texnika fanlari doktori, professor, O‘zRFA akademigi

Rasmiy opponentlar:

Mardonov Batirjan Mardonovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Korshunova Natalya Aleksandrovna

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Teshaev Muhsin Xudoyberdievich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot: – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.02/30.12.2019. T/FM.61.01 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2024 yil _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 70 uy, Tel.: (99871) 233-68-47; Faks: (99871) 233-74-82, e-mail: kanselyaria@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.). Manzil: 100047, Toshkent, Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 70 uy, Tel.: (99871) 233-68-47; Faks: (99871) 233-74-82, e-mail: kanselyaria@academy.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

M.M. Mirsaidov

Ilmiy darajalar beruvchi

bir martalik ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor, O‘zRFA akademigi.

M.K. Usarov

Ilmiy darajalar beruvchi

bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, professor.

A.A. Rizayev

Ilmiy darajalar beruvchi

bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy texnika va texnologiyalarning turli sohalarida mashina va mexanizmlarning, qurilma va ularning elementlarining tashqi ta'sirlar natijasidagi tebranma harakatlarini matematik modellashtirish, ularda paydo bo'ladigan zararli tebranishlarni so'ndirish, mukammal ishlashiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rishga, uzoq muddat ishonchli ishlashini ta'minlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda turli qurilmalarni loyihalashda murakkab mexanik sistemalarni matematik modellarini yaratish va zararli tebranishlarini so'ndirishda yangi tipdagi dinamik so'ndirgichlarni qo'llash muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, jumladan mexanik sistemalarning tebranma harakatlari dinamikasi va ustuvorligi bilan bog'liq muammolarni ilmiy asoslab, matematik modellarini ishlab chiqish, dinamikasini o'rganish, tebranish jarayonida ularda paydo bo'ladigan zararli tebranishlarni so'ndirish va sistemalarning chiziqli bo'lmagan tebranishlarida ustuvorligini tekshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda murakkab mexanik sistemalarni matematik modellarini ishlab chiqish, ularni zararli tebranishlardan himoyalash va chiziqli bo'lmagan tebranishlari ustuvorligini tekshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan taqsimlangan parametrli mexanik sistemalarning suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi turli jarayonlardagi tebranishlarini matematik modellashtirish, ustuvorligini tekshirish va dinamikasini baholash bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali murakkab mexanik sistemalarning turli tashqi ta'sirlar natijasidagi tebranishlarini matematik modellashtirish va ustuvorligini tekshirish hamda ustuvorlik shartlari va sohalarini konstruktiv parametrlarga bog'liq holda aniqlash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda sanoat va texnikaning ko'plab sohaları - aviatsiyada, suv osti transportlarida, temiryo'l transportida va ishlab chiqarish texnologiyalarida keng qo'llanilayotgan murakkab mexanizmlar va qurilmalarni matematik modellashtirish, dinamikasini baholash hamda ustuvorligini tekshirishga qaratilgan ko'plab loyihalar ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish..., qurilish materiallari ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish..."¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifani amalga oshirish, jumladan turli tashqi ta'sir etuvchi omillarni hamda konstruktiv parametrlarni hisobga olgan holda tebranishlardan himoyalovchi murakkab mexanik sistemalarni real ishlash jarayonini va konstuksiylarining murakkabligini e'tiborga olib, matematik modellashtirish va loyihalash, dinamikasini baholash, ustuvorligini tekshirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" PF-60-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmoni, 2008 yil 15 iyuldagi PQ-916-son “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Yangi tipdagi suyuqlik bo‘g‘inli dinamik so‘ndirgichlarni loyihalash, takomillashtirish, optimal parametrlarini aniqlash va ularni tebranishlardan himoyalovchi ob‘yektlar sifatida qo‘llashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning etakchi ilmiy markazlari, jumladan Beijing institute of technology, Tsinghua University (Xitoy Xalq Respublikasi), University of Massachusetts Amherst, California institute of technology (AQSh), Busan National University (Korea), Perm davlat universiteti, Peterburg politexnika universiteti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), M.T.O‘razboyev nomidagi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti (O‘zbekiston) va boshqalarda amalga oshirilmoqda.

Tebranishlardan himoyalovchi taqsimlangan parametrli sistemalarni matematik modellarini ishlab chiqish, dinamikasini baholash bo‘yicha dunyo miqyosida jumladan, quyidagi muhim natijalar olingan: yuqori chasotalarda zararli tebranishlarni so‘ndirishda asosan qattiq jismlar dinamik so‘ndirgichlarning samaradorligi yuqori ekanligi isbotlangan (Ukraina Milliy texnika universiteti “Kiyev politexnika instituti”, Ukraina, Massachusetes texnologiya institute, AQSh); mexanik sistemalarning past chastotalardagi zararli tebranishlarini so‘ndirishda suyuqlik bo‘g‘inli dinamik so‘ndirgichlarni qo‘llash samaradorligini baholash metodikasi ishlab chiqilgan (Ukraina Milliy texnika universiteti “Kiyev politexnika instituti”, Ukraina); sterjen tipidagi deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar sistemalarni o‘rganish – chiziqli bo‘lmagan xarakteristikalarini tadqiq etish, matematik modellashtirish, dinamikasini o‘rganish, ustuvorligini tekshirish masalalarining yechimlari taklif etilgan (Lids universiteti, Buyuk Britaniya, Ukraina Milliy texnika universiteti “Kiyev politexnika instituti”, Ukraina, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya); turli tashqi ta’sirlar ostidagi plastinkali sistemalarning tebranma harakatlari tadqiq etilgan (Darmstadt mexanika

²<https://english.bit.edu.cn/>, www.tsinghua.edu.cn/en/, www.caltech.edu, www.umass.edu, www.pusan.ac.kr, www.spbstu.ru, www.msu.ru, www.psu.ru, <https://instmech.academy.uz/ru>, <https://www.mechanik.tu-darmstadt.de/index.en.jsp>

universiteti, Germaniya, M.T.O‘razboyev nomidagi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti, O‘zbekiston).

Dunyoda sanoat, texnika va muhandislikning ko‘plab sohalarida mexanik sistemalarni past chastotali zararli tebranishlardan himoyalash, dinamik so‘ndirgichlar yordamida tebranishlarni so‘ndirish, tebranishlardan himoyalovchi taqsimlangan parametrlil mexanik sistemalarni matematik modellashtirishga qaratilgan bir qator, jumladan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda: kinematik va tasodifiy qo‘zg‘alishlarda tebranishlardan himoyalovchi mexanik sistemalarni matematik modellashtirish; mexanik sistemalarni dissipativ xarakteristikalarini hisobga olgan holda tebranma harakatlari ustuvorligini tekshirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston va xorij olimlari tomonidan taqsimlangan parametrlil mexanik sistemalarni matematik modellashtirish va ularning zararli tebranishlarini dinamik so‘ndirish prinsiplari masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari Sh.P.Alimuxamedov, F.B.Badalov, G.A.Baxodirov, E.S.Briskin, A.V.Voropay, O.M.Dusmatov, S.V.Eliseev, O.V.Zemskova, D.N.Ivanov, K.A.Karimov, V.G.Klimov, B.G.Korenev, V.B.Larin, V.P.Legeza, B.B.Mardonov, M.M.Mirsaidov, N.V.Naumova, V.P.Pavlov, M.A.Pavlovskiy, T.R.Rashidov, Yu.V.Radish, L.M.Reznikov, A.A.Rizayev, L.M.Rijkov, Q.Xusanov, M.Teshaev, K.V.Frolov, F.A.Furman, V.P.Shpachuk, V.B.Yakovenko, P.Alessandro, J.Bonsel, J.Banerjee, A.El-Bassiouny, N.Evangelos, R.Fey, W.Gunawardana, J.Haiyan, D.Hu, X.Jue, N.Jaini, Ch.Liquin, K.Mkrtchyan, H.Nijmeijer, Ch.Chaohe, H.Yong, H.Su, S.Sapna, M.Zainulabidin va boshqalar tomonidan olib borilgan bo‘lsa, tebranuvchi sistemalarning ustuvorligini tekshirish masalalari B.Atajanov, N.N.Bogolyubov, M.N.Sidiqov, X.M.Buranov, V.I.Vorotnikov, I.I.Gubanova, O.L.Zuev, A.V.Karapetyan, N.A.Korshunova, M.A.Lukyanov, M.M.Martinyuk, D.R.Merkin, V.G.Miladjanov, Yu.A.Mitropolskiy, N.N.Moiseev, M.A.Pavlovskiy, YA.G.Panovko, L.M.Rijkov, V.V.Rumyansev, V.I.Slyuntyay, X.T.Turaev, N.G.Chetaev, D.Baran, R.V.Bobryk, L.Chen, A.Chrzeszczyk, A.Fidlin, K.Ito, L.Hou, S.Kelly, L.Kurpa, D.Liu, O.Mazur, A.N.Michel, M.Migdalovici, H.Ramon, E.Siller, Y.Tang, J.Villarreal, Y.Wang, H.Wu, Zh.Wu, W.C.Xie, Y.Xi, H.Zhang va boshqa olimlar tomonidan yechilgan.

N.M.Paynter tomonidan asos solingan strukturaviy modellashtirish – graf bog‘lanishlar usuli O.M.Dusmatov, M.A.Pavlovskiy, V.B.Yakovenko, F.T.Brown, W.Borutzky, D.C.Karnopp, J.Kypuros, D.L.Margolis, R.C.Rosenberg, M.Tenreiro, M.Vitor va boshqalar tomonidan takomillashtirilgan.

Bugungi kunda garmonik, tasodifiy va tasodifiy parametrik qo‘zg‘alishlar ta’sirlarida taqsimlangan parametrlil gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali mexanik sistemalarning suyuqlik bo‘g‘inli dinamik so‘ndirgich bilan birgalikdagi chiziqli bo‘lmagan tebranishlarini strukturaviy matematik

modellashtirish, hisoblash usullarini takomillashtirish, dinamikasini baholash, ustuvorligini tekshirish echilishni talab etadigan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'likligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat arxitektura–qurilish universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining OT-F4-71 “Fazoviy va qobiq konstruksiyalarning zilzilabardoshlik nazariyasini rivojlantirishda chiziqsizliklarni e'tiborga olish muammolarini yechish” (2017-2020) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kinematik, tasodifiy va tasodifiy parametrik qo'zg'alishlar ta'siridagi taqsimlangan parametrli gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali elastik sistemalar va suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichlarning birgalikdagi chiziqli bo'lmagan tebranishlarini strukturaviy modellashtirish, dinamikasini baholash, hisoblash usullarini takomillashtirish, ustuvorligini tekshirish muammolarini hal qilish metodikalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

taqsimlangan parametrli gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sistemalarning modal massalari va bikrlilari analitik ko'rinishda aniqlash;

gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali elastik sterjen, plastinka va suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichlarning birgalikdagi chiziqli bo'lmagan tebranishlarini graf bog'lanishlar usuli yordamida strukturaviy modellashtirish metodikasini ishlab chiqish;

kinematik va tasodifiy qo'zg'alishlarda tebranishlardan himoyalannuvchi taqsimlangan parametrli sistemalarning gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikalarini hisobga olgan holda chiziqli bo'lmagan tebranishlari dinamikasini baholash va ustuvorligini tekshirish usullarini takomillashtirish;

tebranishlardan himoyalannuvchi elastik sistemalarning ustuvorlik chegaralari va sohalarini sistema parametrlarining turli qiymatlari uchun sonli hisoblashlar natijalari asosida aniqlash va olingan natijalarni tahlil qilish;

suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichga ega bo'lgan elastik sterjenning bo'ylama chiziqli bo'lmagan tebranishlarini strukturaviy matematik modellashtirish, dinamikasini va ustuvorligini tekshirish metodikasini ishlab chiqish;

suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichning zararli tebranishlarni so'ndirishdagi effektivligini baholash, effektivligini ta'minlash bo'yicha konstruktiv parametrlarini aniqlash, tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida taqsimlangan massali elastik sterjenlar va plastinkalar tebranishlardan himoyalannuvchi ob'ektlar, qattiq jismlar va suyuqlikdan iborat dinamik so'ndirgichlar tebranishlardan himoyalovchi qurilmalar sifatida olingan.

Tadqiqotning predmetini strukturaviy matematik modellashtirish, hisoblash usullarini takomillashtirish, tebranishlardan himoyalannuvchi elastik sistemalar dinamikasini baholash, sistema parametrlariga bog'liq holda ustuvorlik shartlari va chegaralarining analitik ifodalarini aniqlash va sonli tahlil qilish, tavsiyalar ishlab chiqish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, tebranishlar nazariyasi, gidromexanika, hisoblashning kompyuter texnologiyalari va sonli tahlil, vertikal urinmalar, sekin o'zgaruvchi amplitudalar, graf bog'lanishlari, Lyapunovning birinchi yaqinlashish, Raus kriteriyasi hamda Ito usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kinematik, tasodifiy va tasodifiy parametrik qo'zg'alishlarda sterjen va plastinka materiallarida gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikalarini va suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichning dempferlash xususiyatlarini hisobga olgan holda sistemalarning ko'ndalang va bo'ylama chiziqli bo'lmagan tebranishlari graf bog'lanishlar usuli yordamida matematik modellari ishlab chiqilgan;

elastik sterjen va plastinkaning suyuqlikli dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi chiziqalmas tebranishlari dinamikasini o'rganish va ustuvorligini tekshirish metodikasi takomillashtirilgan;

tebranishlardan himoyalovchi sterjen va plastinkani uzatish funksiyalarining analitik ifodalari sistemalarning gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikalarini hisobga olib, konstruktiv parametrlarga bog'liq holda aniqlash asoslangan;

uzatish funksiyalarining minimumga erishish shartlari asosida past chastotali zararli ko'ndalang tebranishlarini so'ndirishda suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichlarning effektivligini konstruktiv parametrlar va o'zgaruvchilar bo'yicha baholash asoslangan;

turli jarayonlardagi tebranishlardan himoyalovchi sterjen va plastinkaning ustuvorlik chegaralarini va sohalarini aniqlashning sonli tahlil etish algoritmi sistemalarning gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikalarini hisobga olib, konstruktiv parametrlarga bog'liq holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen, plastinka va suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichning kinematik, tasodifiy va tasodifiy parametrik tebranishlarining matematik modellari, hisoblash usullarini va algoritmlarini takomillashtirish, dinamikasini baholash, ustuvorligini tekshirish metodikalari ishlab chiqilgan;

taqsimlangan parametrlar sterjen va plastinka tipidagi konstruksiyalarning past chastotali zararli ko'ndalang tebranishlarini so'ndirishda suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichning parametrlarini tanlash metodikasi ishlab chiqilgan;

tebranishlarini dinamik so'ndirish effektivligini oshirishda, ya'ni tebranish amplitudalarini kamaytirishda va sistema harakatlari ustuvorligini ta'minlashda sterjen, plastinka materiallarining va suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichlarning elastik dempferlovchi elementlarining dissipativ xossalari muhimligi asoslangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tebranishlardan himoyalovchi va himoyalovchi sistemalarning konstruktiv parametrlarni tanlash bo'yicha tahliliy natijalar va zarur xulosalar keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishlab chiqilgan modellarning adekvatligi, hisoblash usullarining ishonchliligi va olingan natijalarning to'g'riligi boshqa mualliflarning natijalari bilan solishtirish orqali isbotlangan. Ishlab chiqilgan

modellardan xususiy hollarda adabiyotlarda ma'lum bo'lgan modellar kelib chiqishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tebranishlardan himoyalannuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali taqsimlangan parametrli elastik sistemalarning chiziqli bo'lmagan tebranma harakatlarini strukturaviy matematik modellashtirilgani, dinamikasini va ustuvorligini tekshirish metodikalarining ishlab chiqilganligi bilan baholanadi. Tadqiqot ishida olingan natijalar strukturaviy usullarni qo'llash mumkin bo'lgan masalalar doirasini kengaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sanoat va texnikaning turli sohalarida qo'llanilayotgan mexanik sistemalarni zararli tebranishlardan himoyalash, qismlarining mustahkamligi va ularning mukammal, uzoq muddat ishlashini ta'minlash, tebranishlardan himoyalannuvchi qurilmalarni loyihalashda konstruktiv parametrlarni tanlash imkoniyatini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tebranishlardan himoyalannuvchi mexanik sistemalarni strukturaviy modellashtirish va ustuvorligini tekshirish masalalari bo'yicha olingan natijalar asosida:

kinematik, tasodifiy va parametrik tasodifiy tebranishlarda taqsimlangan parametrli sistemalar harakatlarini matematik modellashtirish, ustuvorligini tekshirish, ustuvorlik shartlarining analitik ifodalarini aniqlash usuli hamda sistema konstruktiv parametrlarining turli qiymatlarida ustuvorlik chegaralarini va sohalarini sonli tahlil etish algoritmlari Jizzax viloyat transport boshqarmasida transport vositalari qismlari harakatlarini garmonik, tasodifiy va parametrik tasodifiy tebranishlar ta'sirida matematik modellashtirishda, ustuvorligini tekshirishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 13.12.2022 yildagi № 2/7724 sonli ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi transport vositalari qismlarining tashqi ta'sirlardagi tebranishlarini matematik modellashtirish hamda ustuvorligini ta'minlash imkonini bergan.

tebranishlardan himoyalannuvchi taqsimlangan parametrli sterjen va plastinka harakatlarining ustuvorlik shartlari, ustuvorlik chegaralarini va sohalarini sonli tahlil etish algoritmi, garmonik va tasodifiy qo'zg'alishlar ta'siridagi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va plastinkalarning suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi tebranishlari uchun graf bog'lanishlar usuli yordamida olingan matematik modellashtirish metodikasi hamda chastota tenglamasining sistema parametrlariga bog'liq holda aniqlangan ifodasi asosida "Nazariy mexanika" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 31 maydagi 237-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 137-702-raqamli guvohnoma) va "70730306-Unikal binolarni loyihalashtirish va qurish" magistratura mutaxassisligi uchun unikal bino va inshootlar dinamikasi fani dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 01.12.2022 yildagi № 02/01-01-89 sonli ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi o'quv rejadagi "Unikal bino va inshootlar dinamikasi" fanining "Bino va inshootlarning dinamik hisobiy modelini tanlash, yuklarni to'plash qoidalari. Xususiy chastotalar va formalarni aniqlash", "Erkinlik darajasi cheksiz bo'lgan o'zgarmas kesimli balkaning erkin

tebranishlari. Xususiy chastotalar va shakllarni aniqlash” va “Sterjenning bo‘ylama tebranishlari. Xususiy chastotalar va formalarni aniqlash. Murakkab elastik sistemalarning dinamik xarakterlarini taqribiy usullar yordamida aniqlash” mavzulari bo‘yicha past chastotali zararli tebranishlarni so‘ndirish, tahlil qilish, o‘zgaruvchilar va parametrlarni zaruriy tanlash masalalarini yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta xalqaro va 1 ta Respublika miqyosidagi konferensiyalarda, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislar institut” Milliy tadqiqot universiteti “Nazariy va qurilish mexanikasi” kafedrasida qoshidagi “Mexanika muammolari” bo‘yicha OTM Respublika ilmiy seminarida (2022 yil, 6 may, bayonnoma №4.), O‘zRFA qoshidagi M.T.O‘rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining “Konstruksiya va inshootlarning seysmik mustahkamligi” birlashgan ilmiy seminarlarida (2022 yil, 18 may, bayonnoma №5, 2023 yil, 6 dekabr, bayonnoma №5), M.Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti ilmiy seminarida (2023 yil, 29 sentyabr, bayonnoma №1) ma‘ruza qilingan va “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti” Milliy tadqiqot universiteti “Mexanika va kompyuterli modellashtirish” kafedrasida qoshidagi “Mexanika muammolari” bo‘yicha Oliy o‘quv yurtlararo Respublika ilmiy seminarida (2023 yil, 18 noyabr, bayonnoma №15) va muhokamasidan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 26 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib ulardan 17 tasi ilmiy maqola, 3 tasi intellektual mulk huquqi guvohnomasi, 6 tasi xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlarning materiallari to‘plamlarida chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, shulardan 11 tasi xorijiy, 5 tasi respublika miqyosidagi nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi 178 sahifadan iborat bo‘lib, kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

Muallif ilmiy maslahatchilari fizika-matematika fanlari doktori, professor O.M.Dusmatov va texnika fanlari doktori, professor, O‘zRFA akademigi M.M.Mirsaidovga doimiy maslahatlari uchun o‘zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘ekti, predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi bayon qilingan. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot

natijalarining joriy qilinishi, natijalarining e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Muammoning o'rganilganlik darajasi bo'yicha adabiyotlar tahliliy sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida turli tipdagi dinamik so'ndirgichlar, sterjenlar va plastinkalarning turli jarayonlardagi harakatlarini matematik modellashtirish, dinamikasi va absolyut ustuvorligini (matnda keying o'rinlarda ustuvorlik deb yuritiladi) tekshirish hamda graf bog'lanishlar strukturaviy usulini mexanik sistemalarni matematik modellashtirishda qo'llanilishining o'rganilganlik darajasi bo'yicha adabiyotlarning tahliliy sharhi keltirilgan.

Bunda texnika va texnologiya hamda muhandislik sohalorida qurilmalar va ularning elementlarining zararli tebranishlarini so'ndirishda samarali bo'lgan suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichlarning dempferlash xususiyatlarini o'rganish, passiv, yarim aktiv va aktiv sistemalarni dempferlash xususiyatlarini tekshirish, tebranishlardan himoyalannuvchi sterjenlar va plastinkalarning tebranish formalarini tajriba o'tkazish yo'li bilan aniqlash, ularning turli tipdagi dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi kinematik qo'zg'alishlar ta'siridagi ko'ndalang, bo'ylama, buralma tebranishlarini, tebranishlardan himoyalannuvchi plastinkalarning tebranishlarini so'ndirish, ustuvorlik sohalarni va chegaralarini aniqlash, tebranishlardan himoyalannuvchi gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali elastik sistemalarni turli jarayonlarda matematik modellashtirish va dinamikasi o'rganish, to'plangan va taqsimlangan massali sistemalarning tebranma harakatlarini graf bog'lanishlar usuli yordamida matematik modellashtirishning nazariy asoslari, qo'llanilishi masalalarini qamrab olgan ko'plab adabiyotlar tahliliy o'rganilgan.

Kinematik, tasodifiy va tasodifiy parametrik qo'zg'alishlar ta'siridagi gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali elastik sterjenlar va plastinkalarning suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi chiziqli bo'lmagan harakatlarini dissipativlik va suyuqlik xossalarini hisobga olgan holda matematik modellashtirish, dinamikasini o'rganish, ustuvorligini tekshirish metodikasini takomillashtirish, dinamik so'ndirish effektivligini ta'minlash uchun konstruktiv parametrlarni tanlash maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlar o'tkazish zarurati mavjudligi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali tebranishlardan himoyalannuvchi sterjenni matematik modellashtirish va dinamikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida taqsimlangan parametrli mexanik sistemalarni graf bog'lanishlar strukturaviy usuli yordamida matematik modellashtirish, gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali taqsimlangan parametrli elastik sterjenning suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi tebranma harakatlarining graf bog'lanishlar usuli yordamida matematik modeli va hisoblash usuli ishlab chiqilgan. Sonli tahlillar asosida suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichni dissipativ xarakteristikali sterjenlarning past chastotali tebranishlarni so'ndirishda effektivligi va so'ndirgich parametrlarini o'zgartirish orqali har xil tebranish jarayonlarida so'ndirish effektini oshirish mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Elastik sterjen va unga o'rnatilgan suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichdan iborat sistemaning fizik modeli sxemasi 1-rasmdagi kabi olingan.




1-rasm. Gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgichli sistema sxemasi

1- rasmda $I : m_\alpha$ - dinamik so'ndirgichdagi suyuqlikni o'rab turgan qobiqning (1 – jism) massasi; $I : m_\beta$ - dinamik so'ndirgichdagi sferik qattiq jismning massasi; $I : m_\gamma$ - suyuqlik massasi; $I : m_\theta$ - dinamik so'ndirgichning sferik jismiga yopishgan suyuqlik massasi; $R : b_f$ - dempferning qovushoqlik koeffitsienti; $C : c_f^{-1}$ va $C : c_p^{-1}$ - yumshoqlik (elastiklik) koeffitsientlari; q_α, q_β – lar mos ravishda dinamik so'ndirgichning tashqi korpusi va qattiq jismining ko'chislari.

Sterjen va dinamik so'ndirgichni strukturaviy modellashtirish uchun graf bog'lanishlari bo'yicha tasvirlaymiz.

Sterjenning uzunligi bo'yicha i - to'planishlarga bog'langan graflarni alohida ajratib va ularni tegishli raqamlanganda hamda qaralayotgan sistemadagi prujinalarni cho'zilishini musbat deb olinganda, graf bog'lanishlar quyidagicha bo'ladi (2-rasm):



2-rasm. Tebranishlardan himoyalانuvchi sterjenning uzunligi bo'yicha i - to'planishlar uchun graf bog'lanishlari

2-rasmda $F_l(t)$ va $F_r(t)$ – sterjenning chap va o'ng uchlari qo'yilgan kuchlar; $m_\phi = m_\alpha + m_\gamma$; F_1 va F_2 lar mos ravishda suyuqlikni o'rab turgan qobiq va suyuqlik o'rab turgan jismda hosil bo'layotgan inersiya kuchlari; F_s gidrodinamik kuch; F_f dinamik so'ndirgichning ta'sir kuchi; q_i sterjenning ko'chislari;

$$m_i = \int_0^l \rho A u_i^2 dx; c_i = \left[\int_0^l \rho A (1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2)) u_i^2 dx + \frac{3EI}{\omega_{*i}^2} (-\eta_1 + j\eta_2) \times \right. \\ \left. \times \sum_{i^*=1}^{n_0} C_{i^*} q_{ia}^{i^*} \frac{h^{i^*}}{2^{i^*}(i^* + 3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^{i^*} \right) dx \right] \omega_{*i}^2, \quad (1)$$

ρ, A – lar mos ravishda sterjen materiali zichligi va ko‘ndalang kesimi yuzi; $u_i = u_i(x)$ - xususiy tebranishlar formalari; q_{ia} - sterjen ko‘chishlarining absolyut qiymatlari; C_0, C_1, \dots, C_n - gisterezis tugunining tajribadan aniqlanadigan koefitsientlari bo‘lib, sterjen materialining demperlovchi xossalarga bog‘liq bo‘ladi; $\eta_1, \eta_2 = \eta_{22} \text{sign}(\omega)$ lar sterjen materialining dissipativlik xossalarga bog‘liq bo‘lgan doimiy koefitsientlar bo‘lib, gisterezis sirtmog‘idan aniqlanadi; $j^2 = -1$; I – inersiya momenti; E – Yung moduli; ω_{*i} - sterjenning xususiy chastotalari.

Inersiya va yumshoqlik elementlaridan kuch yoki tezlik chiqayotganidan hamda bu elementlarning kuch yoki tezlikni qabul qilayotganidan holat o‘zgaruvchilari bo‘yicha sterjenning dinamik so‘ndirgich bilan birgalikdagi ko‘ndalang tebranishlari differensial tenglamalar sistemasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} \dot{p}_i &= u_{i1}(c_f q_\alpha + b_f (m_\varphi^{-1} p_\varphi - \frac{\partial w_{i1}}{\partial t})) + u_{i0} F_l + u_{iL} F_r - c_i q_i; \\ \dot{p}_\varphi &= F_1 + 2c_p q_\beta - F_S - c_f q_\alpha - b_f (m_\varphi^{-1} p_\varphi - \frac{\partial w_{i1}}{\partial t}); \\ \dot{p}_\beta &= -F_2 - 2c_p q_\beta + F_S; \\ \dot{q}_i &= m_i^{-1} p_i; \\ \dot{q}_\alpha &= m_\varphi^{-1} p_\varphi - \frac{\partial w_{i1}}{\partial t}; \\ \dot{q}_\beta &= m_\beta^{-1} p_\beta - m_\varphi^{-1} p_\varphi, \end{aligned} \quad (2)$$

bunda $w_{i1} = w_i(x_1, t)$ – sterjenning dinamik so‘ndirgich o‘rnatilgan x_1 nuqtadagi ko‘chishi qiymati; p_i, p_φ, p_β - m_i, m_φ, m_β massalarning impulslari; $u_{i0} = u_i(0), u_{i1} = u_i(x_1), u_{iL} = u_i(l)$.

Olingan (2) differensial tenglamalar sistemasi gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali elastik sterjenning suyuqlik bo‘g‘inli dinamik so‘ndirgich bilan birgalikdagi ko‘ndalang tebranma harakatining matematik modelini ifodalaydi.

Gidrodinamik [2], inersiya va tashqi kuchlarni hisobga olgan holda yuqoridagi (2) differensial tenglamalar sistemasining yechimlarini aniqlash maqsadida sterjen xususiy tebranishlari formalari Krilov funksiyalari orqali quyidagi ko‘rinishda olingan:

$$u_i(x) = \sum_{i=1}^4 S_i K_{i*}(k_i x), \quad (3)$$

bunda S_1, S_2, S_3, S_4 – chegaraviy va dinamik shartlardan aniqlanadigan koefitsientlar; $k_i^4 = \frac{\rho A}{EI} \omega_{*i}^2$;

$$K_{1*}(k_i x) = (\cosh(k_i x) + \cos(k_i x))/2; K_{2*}(k_i x) = (\sinh(k_i x) + \sin(k_i x))/2;$$

²Ю.В.Радыш. Исследование гидродинамического момента, действующего на твердое тело в поплавковом подвесе//Мех.гир. систем. 1982. – Вып.1.- с. 85-92

$$K_{3*}(k_i x) = (\cosh(k_i x) - \cos(k_i x))/2; K_{4*}(k_i x) = \frac{1}{2}(\sinh(k_i x) - \sin(k_i x))/2.$$

Asos ko‘chishini quyidagicha olamiz:

$$w_0 = -\frac{\varepsilon p_0}{\omega^2} \cos \omega t, \quad (4)$$

bunda εp_0 – asos tezlanishining amplitudaviy qiymati; ε - kichik parametr; ω – tebranishlar chastotasi.

Sterjenning uchlari qistirib mahkamlangan bo‘lib, dinamik so‘ndirgich uning o‘rtasiga o‘rnatilgan holda chastotalar tenglamasining determinant ko‘rinishi quyidagicha aniqlanadi:

$$f(k_i) = \begin{vmatrix} 1 & 0 & 0 \\ K_{20*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) & K_{40*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) & K_{10*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) \\ K_{4*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) & K_{2*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) & K_{3*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) \end{vmatrix} = 0, \quad (5)$$

$$\text{bunda } K_{10*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) = K_{1*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) - HK_{4*}\left(\frac{k_i l}{2}\right); K_{20*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) = K_{2*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) - HK_{1*}\left(\frac{k_i l}{2}\right);$$

$$K_{40*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) = K_{4*}\left(\frac{k_i l}{2}\right) - HK_{3*}\left(\frac{k_i l}{2}\right);$$

$$H = \pm \frac{\omega^2}{2EIk_i^3} \sqrt{\frac{((2c_p M_1 - \omega^2 \Delta)^2 + (M_1 b_s \omega)^2)(c_f^2 + (b_f \omega)^2)}{N_1^2 + N_2^2}};$$

b_s – qovushoqlik koeffitsienti;

$$N_1 = (c_f - M_1 \omega^2)(2c_p - M_4 \omega^2) - (b_s b_f + M_2 M_3 \omega^2) \omega^2;$$

$$N_2 = (b_s (c_f - M_1 \omega^2) + b_f (2c_p - M_4 \omega^2)) \omega;$$

$$M_1 = m_\varphi + m_\beta; M_2 = m_\beta + m_v; M_3 = m_\beta - m_v; M_4 = m_\beta + m_\theta;$$

$m_v - m_\beta$ massali qattiq jism tomonidan siqib chiqarilgan suyuqlikning massasi;

$$\Delta = M_1 M_4 - M_2 M_3.$$


Olingan (5) ifodadan foydalanib tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjenning ko‘ndalang tebranishlaridagi xususiy tebranish formalarining xarakterlarini baholash mumkin.

Past chastotali elastik sterjenning dinamik so‘ndirgich bilan birgalikdagi ko‘ndalang tebranishlarida konstruktiv parametrlarining xususiy tebranish formalarining xarakterlarining o‘zgarishiga ta’sirini o‘rganish maqsadida sterjen materiali uchun AL19 alyumin qotishmasi olindi ($E = 6964119 \cdot 10^4 \frac{N}{m^2}$, $\rho = 2780 \text{ kg/m}^3$). Sterjenning balandligini $h = 5 \cdot 10^{-4} \text{ m}$, uzunligini $l = 120 \cdot 10^{-2} \text{ m}$ va ko‘ndalang kesimi yuzini $A = 12 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2$ qiymatlarda olindi. Bu holda $I = 25 \cdot 10^{-14} \text{ m}^4$. Hidrodinamik kuch ifodasi koeffitsientlari va parametrlar uchun quyidagi munosabatlardan foydalanildi [2]:

$$b_s = 8\pi\rho_1 \nu r_*^4 \varepsilon_1^{-3}; m_\theta = \frac{4}{5} \pi\rho_1 r_*^4 \varepsilon_1^{-1} \nu = \frac{\lambda_* \mu_*}{\lambda_* (1 + \mu_*) + 1}; \nu \in [-\lambda_*, 1], \quad (6)$$

bunda ρ_1 va ν mos ravishda suyuqlikning zichligi va kinematik qovushoqligi; r_* - ikkinchi jism radiusi (1-rasm); ε_1 - birinchi va ikkinchi jismlar oralig‘i; $\lambda_* =$

$\frac{m_v}{m_\theta}$; $\lambda_* \in (0, 2]$; $\mu_* = \frac{m_\beta - m_v}{m_v}$; $\mu_* \in [-1, \infty]$. Bu parametrlar uchun quyidagi qiymatlar olindi: $\mu_* = 1.78$; $v = 0.379 \text{ m}^2/\text{s}$; $r_* = 0.008 \text{ m}$; $\rho_1 = 10^3 \text{ kg}/\text{m}^3$; $\varepsilon_1 = 2.5 \cdot 10^{-3} \text{ m}$. Bu holda $b_s = 2495.2 \text{ N} \cdot \text{s}/\text{m}$; $m_\theta = 4.18 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$; $m_v = 2.15 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$; $m_\beta = 596 \cdot 10^{-5} \text{ kg}$; $m_\gamma = 2.7 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$;



$$m_\alpha = 2 \cdot 10^{-4} \text{ kg};$$

$$c_f = c_p = \frac{10^3 \text{ N}}{m_s};$$


$$b_f = 10^3 \text{ N} \cdot \frac{s}{m}$$

O'zgaruvchilar va parametrlarning keltirilgan qiymatlari asosida (5) chastota tenglamasining grafigi olinib tahlil qilingan.


3-rasm. (5) chastota tenglamasining grafigi.

3-rasmdagi grafikdan xususiy chastotalarning noldan farqli dastlabki uchta qiymatlarini aniqlash imkonini beruvchi k_1, k_2 va k_3 larning qiymatlarini topilgan. $k_1 = 4.2347452, k_2 = 9.817385, k_3 = 15.602495$.


(3) xususiy tebranish formalarini k_i ning aniqlangan dastlabki noldan farqli uchta qiymatlari uchun grafiklari olingan. 4-a) rasmdagi grafiklardan xususiy tebranishlar birinchi, ikkinchi va uchinchi formalarining xarakterlarini o'rganish mumkin. Bunda xususiy tebranishlar formalari sterjenning o'rtasida eng katta qiymatga erishadi. Bu esa shu nuqtada egilish katta bo'lishini va dinamik so'ndirgichni shu nuqtaga o'rnatish maqsadga muvofiqligini, effektivligining yuqoriligini ko'rsatadi.




a)



b)



c)



d)

4-rasm. (3) tebranishlardan himoyalalanuvchi elastik sterjen xususiy tebranishlar formalari o'zgarishi

Bundan tashqari $u_1(x)$ xususiy tebranish formasi $x \in [0; 0.6]$ o'zgaruvchiga nisbatan o'suvchi, $u_2(x)$ xususiy tebranish formasi esa $x \in [0; 0.225]$ intervalda o'suvchi va $x \in [0.225; 0.6]$ intervalda kamayuvchi bo'ladi. $u_3(x)$ xususiy tebranish formasi ikkita o'sish va bitta kamayish oralig'iga ega, ya'ni $x \in [0; 0.15] \cup [0.35; 0.6]$ intervallarda o'suvchi va $x \in [0.15; 0.35]$ intervalda kamayuvchi bo'ladi. 4-b-d) rasmlardagi grafiklardan xususiy tebranish formasini xususiy tebranish differensial tenglamasining umumiy yechimi va $\sin(\omega_* x)$ ko'rinishdagi xususiy yechim sifatida olib natijalarni taqqoslash mumkin bo'ladi.

Xususiy tebranishlar formaslarini xususiy tebranish differensial tenglamasining umumiy yechimi sifatida olish natijalarning aniqlik darajasini oshiradi.

Dissertatsiyaning “**Gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi chiziqli bo'lmagan tebranma harakatlari ustuvorligi**” deb nomlangan uchinchi bobida gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi chiziqli bo'lmagan ko'ndalang statsionar tebranma harakatlari absolyut ustuvorligi (matnda keying o'rinlarda ustuvorlik deb yuritiladi) tekshirilgan. Bunda kinematik qo'zg'alishlar uchun Lyapunovning birinchi yaqinlashish va tasodifiy parametrik qo'zg'alishlar uchun Ito usulidan foydalanilgan. Tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjenning ustuvorlik shartlarini, ustuvorlik sohalari va chegaralarini aniqlash metodikasi hamda sonli hisoblashlar algoritmi ishlab chiqilgan.

Dastlab kinematik qo'zg'alishlar ta'siridagi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi chiziqli bo'lmagan statsionar tebranma harakatlari ustuvorligi tekshirilgan.

Gidrodinamik va tashqi kuchlar ifodalarini hamda $\frac{\partial w_{i1}}{\partial t} = u_{i1} m_i^{-1} p_i$ hosilani (2) differensial tenglamalar sistemasiga qo'yilib, uning yechimi quyidagicha izlaymiz:

$$\begin{aligned} q_i(t) &= q_{ia}(t) \cos(\omega t + \beta_i(t)); q_\alpha(t) = q_{\alpha\alpha}(t) \cos(\omega t + \beta_\alpha(t)); \\ q_\beta(t) &= q_{\beta\alpha}(t) \cos(\omega t + \beta_\beta(t)), \end{aligned} \quad (7)$$

bunda $q_{ia}(t) = q_{ia}$, $q_{\alpha\alpha}(t) = q_{\alpha\alpha}$, $q_{\beta\alpha}(t) = q_{\beta\alpha}$ va $\beta_i(t) = \beta_i$, $\beta_\alpha(t) = \beta_\alpha$, $\beta_\beta(t) = \beta_\beta$ lar mos ravishda $q_i(t)$, $q_\alpha(t)$, $q_\beta(t)$ o'zgaruvchilarning amplitudaviy qiymatlari va boshlang'ich fazalari bo'lib, sekin o'zgaruvchili funksiyalar hisoblanadi.

Natijada soddalashtirishlardan so'ng hosil bo'lgan tengliklar bajarilishi uchun bu tengliklarning har ikkala tomonidagi mos trigonometrik funksiyalar oldidagi koeffitsientlar teng bo'lishi shartlaridan quyidagi tenglamalar sistemasi olingan:

$$\begin{aligned} \dot{q}_{ia} &= -(m_i \omega)^{-1} [-u_{i1} b_f q_{\alpha\alpha} \omega \cos(\beta_\alpha - \beta_i) - u_{i1} c_f q_{\alpha\alpha} \sin(\beta_\alpha - \beta_i) + \\ &\quad + c_{2i} q_{ia} + m_i u_{i*} \varepsilon p_0 \sin \beta_i]; \\ \dot{\beta}_i &= -(m_i q_{ia} \omega)^{-1} [-u_{i1} b_f q_{\alpha\alpha} \omega \sin(\beta_\alpha - \beta_i) + u_{i1} c_f q_{\alpha\alpha} \cos(\beta_\alpha - \beta_i) - \\ &\quad - c_{1i} q_{ia} + \omega^2 m_i q_{ia} + m_i u_{i*} \varepsilon p_0 \cos \beta_i]; \\ \dot{q}_{\alpha\alpha} &= -(m_i \omega \Delta)^{-1} [-\Delta (-u_{i1} q_{ia} (c_{1i} \sin(\beta_\alpha - \beta_i) - c_{2i} \cos(\beta_\alpha - \beta_i)) - \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
& -u_{i1}^2 b_f q_{\alpha\alpha} \omega + m_i u_{i1} u_{i*} \varepsilon p_0 \sin \beta_\alpha) + M_4 q_{\alpha\alpha} m_i b_f \omega - M_2 q_{\beta\alpha} m_i \times \\
& \quad \times (\omega b_s \cos(\beta_\beta - \beta_\alpha) + 2c_p \sin(\beta_\beta - \beta_\alpha))]]; \quad (8) \\
\dot{\beta}_\alpha = & -(m_i \omega q_{\alpha\alpha} \Delta)^{-1} [\Delta(u_{i1} q_{ia} (c_{1i} \cos(\beta_\alpha - \beta_i) + c_{2i} \sin(\beta_\alpha - \beta_i)) + \\
& + (\omega^2 m_i + u_{i1}^2 c_f) q_{\alpha\alpha} - m_i u_{i1} u_{i*} \varepsilon p_0 \cos \beta_\alpha) - M_2 q_{\beta\alpha} m_i (\omega b_s \sin(\beta_\beta - \beta_\alpha) - \\
& - 2c_p \cos(\beta_\beta - \beta_\alpha)) - M_4 q_{\alpha\alpha} m_i c_f]; \\
\dot{q}_{\beta\alpha} = & (\omega \Delta)^{-1} [(b_f \omega \cos(\beta_\beta - \beta_\alpha) - c_f \sin(\beta_\beta - \beta_\alpha)) M_3 q_{\alpha\alpha} - M_1 q_{\beta\alpha} b_s \omega]; \\
\dot{\beta}_\beta = & -(q_{\beta\alpha} \omega \Delta)^{-1} [(b_f \omega \sin(\beta_\beta - \beta_\alpha) + c_f \cos(\beta_\beta - \beta_\alpha)) M_3 q_{\alpha\alpha} + (\Delta \omega^2 - \\
& - 2M_1 c_p) q_{\beta\alpha}],
\end{aligned}$$

bunda $u_{i*} = u_i(0) + u_i(l)$.

$\dot{q}_{ia} = 0, \dot{\beta}_i = 0, \dot{q}_{\alpha\alpha} = 0, \dot{\beta}_\alpha = 0, \dot{q}_{\beta\alpha} = 0, \dot{\beta}_\beta = 0$ bo'lganda (8) differensial tenglamalar sistemasidan qaralayotgan tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjenning statsionar harakatini ifodalovchi tenglamalar sistemasi aniqlanadi. Qo'zg'atilgan harakat tenglamalarini hosil qilish maqsadida (8) differensial tenglamalar sistemasining statsionar holatiga yaqin bo'lgan yechimlari olingan, ya'ni

$$\begin{aligned}
q_{ia}(t) &= q_{i0} + \delta q_{ia}(t); \beta_i(t) = \beta_{i0} + \delta \beta_i(t); \\
q_{\alpha\alpha}(t) &= q_{\alpha s} + \delta q_{\alpha\alpha}(t); \beta_\alpha(t) = \beta_{\alpha 0} + \delta \beta_\alpha(t); \\
q_{\beta\alpha}(t) &= q_{\beta s} + \delta q_{\beta\alpha}(t); \beta_\beta(t) = \beta_{\beta 0} + \delta \beta_\beta(t);
\end{aligned} \quad (9)$$

bunda $\delta q_{ia}(t), \delta q_{\alpha\alpha}(t), \delta q_{\beta\alpha}(t), \delta \beta_i(t), \delta \beta_\alpha(t), \delta \beta_\beta(t)$ - lar etarlicha kichik qiymatlarni qabul qiladi.

(8) tenglamalar sistemasining o'ng tomonlarini statsionar holat atrofida $\delta q_{ia}(t), \delta q_{\alpha\alpha}(t), \delta q_{\beta\alpha}(t), \delta \beta_i(t), \delta \beta_\alpha(t), \delta \beta_\beta(t)$ o'zgaruvchilarga nisbatan qatorga yoyib, yuqori darajali o'zgaruvchilar kichik bo'lganligi sababli birinchi darajali hadlar bilan chegaralanilgan holda, hosil bo'lgan qo'zg'atilgan harakat differensial tenglamalar sistemasining yechimini quyidagicha izlandi:

$$\begin{aligned}
\delta q_{ia} &= H_1^* e^{\lambda t}; \delta \beta_i = H_2^* e^{\lambda t}; \delta q_{\alpha\alpha} = H_3^* e^{\lambda t}; \\
\delta \beta_\alpha &= H_4^* e^{\lambda t}; \delta q_{\beta\alpha} = H_5^* e^{\lambda t}; \delta \beta_\beta = H_6^* e^{\lambda t},
\end{aligned} \quad (10)$$

bunda λ - xarakteristik son; H_k^* ($k = 1, \dots, 6$) - koeffitsientlar.

(10) yechimlarni qo'zg'atilgan harakat differensial tenglamalar sistemasiga qo'yib, H_k^* koeffitsientlarni noldan farqli deb qabul qilib, xarakteristik tenglama olingan:

$$\lambda^6 + A_1 \lambda^5 + A_2 \lambda^4 + A_3 \lambda^3 + A_4 \lambda^2 + A_5 \lambda^1 + A_6 \lambda^0 = 0, \quad (11)$$

bunda A_k ($k=1, \dots, 6$) xarakteristik tenglamaning koeffitsientlari bo'lib, ular tebranishlardan himoyalalanuvchi sistema parametrlariga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, harakat ustuvor bo'lishi uchun uning xarakteristik tenglamasi ildizlarining haqiqiy qismi manfiy bo'lishi etarli. Raus kriteriysiga asosan xarakteristik tenglama ildizlarining haqiqiy qismi manfiy bo'lishini ko'rsatish mumkin. Shu maqsadda Raus sxemasi (11) xarakteristik tenglama uchun tuzildi va undan quyidagi tengsizliklar sistemasi hosil qilindi:


$$\begin{aligned}
A_1 A_2 - A_3 &> 0, \quad T_1 A_3 - A_1 T_2 > 0, \quad D_1 T_2 - D_2 T_1 > 0, \\
R_{1*} D_2 - D_1 R_{2*} &> 0, \quad R_1 R_{2*} > 0,
\end{aligned} \quad (12)$$

